

**SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.26/26.01.2023.A.109.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-
QURILISH UNIVERSITETI**

IBRAGIMOV NAJIB XASANOVICH

**SUV-KO‘NGILOCHAR SOG‘LOMLASHTIRISH MUASSASALARINING
ARXITEKTURAVIY REJALASHTIRISH YECHIMLARINI
TADQIQ ETISH VA ISHLAB CHIQISH**

**18.00.02 – Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish. Landshaft
arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi**

**ARXITEKTURA BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYA
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Arxitektura bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавления автореферата диссертации доктора
философии (Phd) по архитектуре**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (Phd) on architecture**

Ibragimov Najib Xasanovich

Suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasalarining arxitekturaviy
rejalashtirish yechimlarini tadqiq etish va ishlab chiqish.....3

Ибрагимов Нажиб Хасанович

Исследование и разработка архитектурно планировочных решений
водно-развлекательных оздоровительных учреждений.....23

Ibragimov Najib Xasanovich

Research and development of architectural and planning solutions for
water-entertainment health facilities.....43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....47

**SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.26/26.01.2023.A.109.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-
QURILISH UNIVERSITETI**

IBRAGIMOV NAJIB XASANOVICH

**SUV-KO‘NGILOCHAR SOG‘LOMLASHTIRISH MUASSASALARINING
ARXITEKTURAVIY REJALASHTIRISH YECHIMLARINI
TADQIQ ETISH VA ISHLAB CHIQISH**

**18.00.02 – Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish. Landshaft
arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi**

**ARXITEKTURA BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYA
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/A108-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.samdaqu.edu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Uralov Axtam Sindarovich
arxitektura fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Salimov Arifdjan Muslimovich
arxitektura fanlari doktori, professor

Xudoyarova Mavluda Baxriyevna
arxitektura fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

“O‘zshaharsozlikLITI” DUK

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi PhD26/26.01.2023.A.109.05 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil “___” _____soat ____ da kichik faollar zalida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140147, Samarqand sh., Lolazor ko‘chasi, 70-uy. Tel.: (0366) 237-15-93; faks: (0366) 237-26-30, e-mail: samdaqu@equ.uz, samdaquarm@samdaqi.edu.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 140147, Samarqand sh., Lolazor ko‘chasi, 70-uy. Tel.: (0366) 237-15-93; faks: (0366) 237-26-30, e-mail: samdaqu@equ.uz, samdaquarm@samdaqi.edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil « ___ » _____ kuni tarqatildi.

(2023 yil « ___ » _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.S. Uralov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, arx.f.d., professor

I.T. Maxmatqulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, arx.f.b.f.d (PhD), dotsent

D.N. Sultonova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, arx.f.d., professor v.b.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi davrda butun dunyoda aholi salomatligi haqida g'amxo'rlik qilish va uni mustahkamlash asosiy ijtimoiy masalalardan biriga aylanmoqda. Dunyo xalqlari jismonan sog'lom va ma'nan yetuk turmush tarziga alohida e'tibor berib, bunda suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasalarining ro'li kengaymoqda. Dunyoda "SPA" deb nomlangan mingdan ortiq inshootlar mavjud bo'lib, ularni turli xildagi basseynlar, gidropatik xonalar, jismoniy sog'lomlashtirish, mexanoterapiya, fitnes zallari, fotariy, massaj xonalari, umumiy ovqatlanish, go'zallik saloni va boshqa xonalar bilan kompleks tarzda barpo etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo miqyosida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida shahar va shahar atrofida joylashgan mavjud ayrim akvaparklar, yuqori klasli mehmonxonalar, sport-sog'lomlashtirish majmualari va fitnes klublari qoshidagi suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish markazlarini loyihalash va yaratish muammolari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mant-lya-Jolidagi Aqualude suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish majmuasi (Fransiya), Bogotadagi Chairama SPA (Kolumbia), Slovakiyadagi Relaxx, Eskishehirdagi Hotel and Spa sog'lomlashtirish markazlari (Turkiya) tahlil va o'rganilishi yuzasidan yangi sahifalarni ochib berdi. Suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasalarining arxitekturaviy-funksional rejalashtirish yechimlari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

So'ngi yillarda respublikamizda suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasalarini (keyinchalik SuvKSM) loyihalash va qurishga e'tibor kuchaymoqda, butun O'zbekiston bo'ylab suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish inshootlarining qurilishi o'ziga xos ko'rinishda sodir bo'lib, ularning soni yildan-yilga o'sib bormoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, xususan "Respublika hududlarining arxitektura qiyofasini tubdan yaxshilash va aholi turmush darajasini oshirish"¹ vazifasi alohida ta'kidlab o'tilgan. O'zbekistondagi bunday obyektlarning aksariyati turli xil texnologik uskunalar bilan jihozlangan va rivojlangan infratuzilmaga ega bo'lishiga qaramay, ularning aksariyati tadbirkorlarning faoliyatlari, "empirik" va amaliy tajribalariga muvofiq qurilgan. Ushbu tipdagi jamoat binolarini loyihalash va amalga oshirishda ilmiy tadqiqotlarning yetishmasligi; muammoni o'rganishga kompleks yondoshuvning hamda SuvKSM markazi kabi bino tipining jamoat binolari tiplari ro'yxatida yo'qligi; SuvKSM asosiy xonalarining parametrlari va tarkibi, funksiyaviy-rejalashtirish va hajmiy-fazoviy modellarining ishlab chiqilmaganligi; klassifikatsiyasi va tizimlashtirishning yo'qligi masalani yanada murakkablashtirmoqda. Shu bois, jamoat binolarining tipologik doirasini kengaytirish, paydo bo'layotgan yangi tipdagi suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish obyektlarini o'rganish, ularning arxitekturaviy rejalashtirish tamoyillarini shakllantirish hamda funksional rejaviy modellarini aniqlash dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 noyabrdagi PF-5577-son

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

“Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 11 apreldagi PF-5408-son “Qurilish Vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2020 yil 13 martdagi PF-5963-son "O‘zbekiston Respublikasining Qurilish sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019 yil 20 ssentyabrdagi PQ-4464-son “Qurilish sohasiga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va shu sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Fuqaro arxitekturasini o‘rganishga ko‘plab ilmiy ishlar bag‘ishlangan bo‘lib, ular orasida rekreatsiya arxitekturasiga tegishli bo‘lgan akvaparklar, jismoniy sog‘lomlashtirish majmualari va fitnes klublar hamda mehmonxonalar mazkur SuvKSM mavzusining tadqiqot yo‘nalishlariga yaqin hisoblanadi. Shuning uchun bu mavzuni o‘rganishda jamoat binolarining aytib o‘tilgan turlariga ma‘lum darajada tegishli bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarga tayanamiz, bunda jamoat binolarining tipologiyasi va loyihalash metodologiyasiga B.I.Inog‘amov², A.S.Uralov³, D.A.Nozilov⁴, X.M.Ubaydullayev, M.M.Inog‘amova⁵, T.A.Xidoyatov⁶ kabi olimlar salmoqli hissa qo‘shganlar.

Rekreatsiya va sog‘lomlashtirish obyektlarini L.G.Lukyanova⁷, A.T.Polyanskiy⁸, A.S.Uralov⁹, P.S.Kozlov¹⁰, K.Yu.Podgorniyak¹¹, D.V.Yejov¹², I.D.Rodichkin¹³, G.V.Lukomskaya,¹⁴ N.N.Stroyeva¹⁵ kabilar ilmiy ishlarida ko‘rib chiqishgan bo‘lib, ular barcha turdagi dam olish maskanlarini, sog‘lomlashtirish, ko‘ngilochar, profilaktik davolash va turizm kabi obyektlarni loyihalashtirishning asosiy jihatlarini o‘rganishgan.

SuvKSMning nam (akva) zonalarini loyihalash va qurish bo‘yicha ayrim

² Inog‘amov B.I. Zamonaviy bino va inshootlarni loyihalash. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: 2011.

³ Уралов А.С. Бани-хаммам в зодчестве Центральной Азии. – Самарканд: СамГУ, 2002.

⁴ Нозилов. Д.А. Инженерные сооружения в горных районах Узбекистана. - САУ, 1977, №3.

⁵ Ubaydullayev X.M., Inog‘amova M.M. Turarjoy va jamoat binolarini loyixalashning tipologik asoslari. – Toshkent: Voris, 2009.

⁶ Хидоятлов Т.А. Типология общественных зданий. Учебная пособия. – Ташкент: 2008.

⁷ Лукьянова Л.Г., Цыбух В.И. Рекреационные комплексы. – Киев: Вышшая школа, 2004.

⁸ Полянский А.Т. и др. Архитектура комплексов отдыха. – Москва: Стройиздат, 1988.

⁹ Уралов А.С. Архитектура лечебно-целебных учреждений средневековой Центральной Азии и стран зарубежного мусульманского Востока. – Самарканд: Зарафшон, 2004. 124 с.

¹⁰ Козлов П.С. Пансионаты для семейных. - Москва: Стройиздат, 1977.

¹¹ Подгорняк К.Ю. Архитектура лечебных учреждений. Научное издание, - Киев: Строитель, 1990.

¹² Ежов Д. В. Основы формирования архитектуры водно-развлекательных комплексов.: Автореферат дисс. на соис. уч. степ. канд. арх.: Одесса, 2008.

¹³ Родичкин И.Д. Человек, среда, отдых. - Киев: Строитель, 1977.

¹⁴ Лукомская Г.В. Формирование архитектурно-планировочных решений водно-оздоровительных учреждений. Автореферат дисс. на соис. уч. степ. канд. арх.: Львов, 2015.

¹⁵ Строева Н.Н. Архитектурно-типологические принципы формирования велнес-центров. Автореферат дисс. на соис. уч. степ. канд. арх., Москва: - 2019.

masalalarni B.I. Inog'omov¹⁶, I.V.Pogudina¹⁷, A.Kosinskiy, I.A.Trutnev¹⁸, V.S.Kedrov¹⁹, V.S.Sinelnikov²⁰, G.V.Yasniy²¹ ishlarida, shifobaxsh-sog'lomlashtirish basseynlari va hammomlarni fazoviy rejalashtirish va konstruktiv yechimlarini hamda klassifikatsiyasini ko'rib chiqishgan.

Jismoniy-sog'lomlashtirish muassasalari mavzulari quyidagi mualliflar tomonidan tadqiq etilgan: N.G.Kelasyev²², N.S.Strigaleva²³, N.B.Mezenseva²⁴, B.I. Inog'omov²⁵. Ushbu tadqiqotchi va arxitektorlarning ilmiy ishlarida asosan jismoniy-sog'lomlashtirish va sport havzalarining turli tiplarini loyihalashtirish masalalari yoritilgan, faqat ko'ngilochar suv-sog'lomlashtirish basseynlari fragmentar ahamiyatga ega.

O'z navbatida mehmonxona majmualarini, xususan ularning turli funksional tiplarini o'rganish va tadqiq etish bilan: A.P.Olxova²⁶, N.I.Xudayberganova²⁷ kabi olimlar shug'ullanishgan. Ularning tadqiqot ishlari turli xil mehmonxonalarni loyihalash va qurish bo'yicha zamonaviy mahalliy va xorijiy tajribalarni (hajmiy-fazoviy kompozitsiyalarni, rejalashtirish sxemalarni, konstruktiv echimlarni va b.) o'z ichiga olgan.

Shuningdek, ushbu turdagi jamoat binolarinining jahon namunalari loyihalash va o'rganishga hissa qo'shgan xorijiy arxitektor va olimlar: Alberto Apostoli²⁸, Allison Arieff²⁹, Christiane Reiter, Encarna Castillo³⁰, Sibylle Kramer, Fikret Yegül³¹, Philip H Perkins³², Trevor Boddy³³, Richard H. Penner, Fred Lawson³⁴ va boshqalarning ishlarida o'z aksini topgan.

Zamonaviy jahon amaliyotida SuvKSMlarning turli funksional vazifalariga mo'ljallangan loyihalarning katta qismini: (Jen Nuvel, Zaxa Xadid, Mario Botta,

¹⁶ Иноғомов Б.И. Формирование архитектуры плавательных бассейнов в системах гелиообеспечения (на примере Узбекистана). Дисс. на соис. уч. степ. канд. арх.. - Москва, 1987.

¹⁷ Погудина И.В. Принципы архитектурно-планировочной организации здравительных бальнеологических учреждений в системе обслуживания города. - Автореф., канд., дисс., 1971.

¹⁸ Трутнев И.А. Опыт строительства лечебно-оздоровительных бассейнов в рекреационных зонах. - Москва: ЦНТИ по гражданскому строительству и архитектуре, 1981.

¹⁹ Кедров В. С. Плавательные бассейны: Водоснабжение и водоотведение. - Москва: Стройиздат, 2002.

²⁰ Синельников В.С. Бани, сауны, бассейны: типы, проектирование и строительство. - Москва: Эксмо, 2007.

²¹ Ясный Г.В. Спортивные бассейны. - Москва: Стройиздат, 1988.

²² Келасев Н.Г. Проектирование физкультурно-оздоровительных комплексов. - Москва: АСВ, 2010.

²³ Стригалева Н.С. Функциональная структура физкультурно-оздоровительных сооружений предприятий. - Москва: ЦНИИЭП учебных зданий, 1986.

²⁴ Мезенцева Н.Б. Основные тенденции в научных исследованиях и проектировании спортивно-оздоровительных сооружений. Сб. науч. тр. Архитектура и строительство зданий для зрелищ, спорта и управления. Москва: ЦНИИЭП учебных зданий, 1990.

²⁵ В.И. Inog'omov. Sport inshootlarini arxitekturaviy loyixalash. O'quv qo'llanma. - Toshkent: 2016 y.

²⁶ Ольхова А.П. Гостиницы. - Москва: Стройиздат, 1983.

²⁷ Худайберганава Н.И. и др. Архитектурная реконструкция ташкентских гостиниц. - Москва: жур. «Архитектура строительство и дизайн», 2004, № 2 .

²⁸ Alberto Apostoli. Architettura della spa. - Il Campo, 2012. - 160p.

²⁹ Allison Arieff. SPA. - Taschen 25th Anniversary, 2008 - 352p.

³⁰ Encarna Castillo. Spa & Health club Design. Te Neues. 2005. - 136p.

³¹ Yegül.Fikret. Bathing in the Roman World. Cambridge University Press, 2009

³² Philip H. Perkins. Swimming Pools: Design and Construction, Fourth Edition. CRC Press, 2000.

³³ Trevor Boddy. Pools: Aquatic Architecture: Hughes Condon Marler Architects. /T. Boddy. - ORO editions, 2013.

³⁴ Fred Lawson. Hotels and Resorts: Planning and Design (Butterworth Architecture Design and Development Guides) Architectural Press, 1995.

Gokhan Avcioglu, Caroline Barat, Andrej Kalamar, Piter Zumtor)³⁵ va boshqa mashhur arxitektorlar ishlab chiqishgan.

Yuqorida tilga olingan tadqiqotchilarning ishlari katta amaliy ahamiyatga ega va istiqbolda dolzarbligicha qolmoqda. Biroq, ushbu tadqiqotlarning barchasi ko'rib chiqilayotgan mavzuga u yoki bu darajada yaqin bo'lsada, aynan suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasalarining arxitekturaviy rejalashtirish yechimlari shu vaqtgacha ilmiy jihatdan keng qamrovli o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq F.I-86 raqamli "O'zbekiston arxitekturasini mustaqillik mafkurasi va innovatsion rivojlanish qonuniyatlari asosida tadqiq etish va samarali yo'llarini ishlab chiqish (2018-2023)" mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasalari arxitekturasini shakllantirish asoslarini aniqlash, ularning tipologiyasini va arxitekturaviy-funksional rejalashtirish yechimlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

SuvKSMLarining tarixiy shakllanishi va rivojlanishi hamda zamonaviy loyihalash tajribalarini tahlil qilish, "SuvKSM" tushunchasiga aniqlik kiritish;

arxitekturaviy-fazoviy va hajmiy rejaviy yechimlarining shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar guruhini aniqlash;

SuvKSMLar tarkibiy qismlarini shakllantirish va ularni ko'p funksiyali obyektlarga joylashtirish talablarini aniqlash;

SuvKSMLarning asosiy xonalari tarkibi va parametrlarini ishlab chiqish;

SuvKSMLarning asosiy funksional rejaviy sxemalarini va ushbu obyektlarning tipologik xususiyatlariga ko'ra klassifikatsiyasini ishlab chiqish;

SuvKSMLarini me'moriy loyihalash bo'yicha asosiy tavsiyalarni va arxitekturaviy-rejaviy tashkil etish tamoyillari hamda ularni joylashtirish usullarini ishlab chiqish;

SuvKSM tiplari bo'yicha konseptual loyiha takliflarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasalari va suv-sog'lomlashtirish zonasiga ega bo'lgan ko'p funksiyali majmualar, bular: akvaparklar; mehmonxonalar tarkibidagi "SPA" lar; jismoniy sog'lomlashtiruvchi fitnes-sport klublari olingan.

Tadqiqotning predmetini suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasalarini arxitektura-rejaviy, hajmiy-fazoviy va badiiy-estetik tashkil etishning metodologik usullarini o'rganish va aniqlash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda turli davrlardagi (tarixiy va zamonaviy) SuvKSMLariga doir grafik materiallarni solishtirish va taqqoslash, mavjud suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish obyektlari bo'yicha axborot manbalarini yig'ish va

³⁵ Jen Nuvel (Les Bains des Docks. Fransiya), Zaxa Xadid (Golf and spa-resort. Dubrovnik, Xorvatiya), Mario Botta (Tschuggen Bergoase spa markazi. Shvesariya), Gokhan Avcioglu (Eskisehir Hotel and Spa. Turkiya), Caroline Barat, (Aqualude. Fransiya), Andrej Kalamar (Vivat Pool and Spa), Piter Zumtor (The Therme Vals).

natural tadqiqotlar o'tkazish, fotofiksatsiya, o'lchov, SuvKSMlarining arxitekturaviy-rejaviy yechimlarini tuzish, tadqiqot natijalarini umumlashtirish va ularni loyihalashga qo'yiladigan talablarni aniqlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasasi” tushunchasiga aniqlik kiritilib “SPA” atamasining mahalliy analogi - “SuvKSM” taklif etilgan va ularning o'zaro bog'liqligi aniqlangan;

SuvKSMlarni alohida bino sifatida joylashtirish va mavjud imoratlar tarkibiga birlashtirishda ko'p funksiyali SuvKSMlarning hajmiy-rejaviy yechimi, joylashish xususiyati, xonalar guruhi kabi loyihalash talablari shakllantirilib, SuvKSMni arxitekturaviy rejalashtirishning kichik, o'rta va katta sig'imli sxemalari hamda funksional zonalarining maydonlari, bir vaqtda va bir sutkada xizmat ko'rsatish quvvati kabi parametrlari ishlab chiqilgan;

suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasalarining funksional vazifasi, shahar muhitida joylashishi, imoratlar tarkibida yoki alohida joylashishi, foydalaniladigan suvning turi, hajmiy-rejaviy tashkil etilishi, sig'imi kabi tipologik xususiyatlari aniqlangan.

suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasalarini arxitekturaviy-rejaviy tashkil etishda suvdan foydalanish, namunaviy modul asosida SuvKSM rejaviy tuzilmasini shakllantirish, arxitekturaviy va hajmiy-rejaviy tashkil etishning bino sig'imiga hamda shahar muhitida joylashishiga bog'liqligi, funksional maqsadi va joylashgan joyning o'zaro bog'liqligi, mavjud jamoat muassasalariga birlashtirish, uchastka tanlashda tabiiy shifobaxsh resurslarning ustuvorligi tamoyillari shakllantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

SuvKSMlarni ko'p funksiyali obyektlarga birlashtirishda imoratning arxitekturaviy yechimiga mos keluvchi me'moriy-rejaviy sxemalar (bloklashgan va markazlashgan tiplari) ishlab chiqilgan;

suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasalarining asosiy zonalarini (yechinish-kiyinish, akva, termal, sog'lomlashtirish, fitnes va go'zallik) muhitining tarkibiy qismlarini texnologik funksiyaviy-rejaviy tashkil etish yechimlari ishlab chiqilgan;

SuvKSM funksional strukturasi asosiy zonalarini o'z ichiga olgan “Namunaviy moduli” ishlab chiqilgan va uning asosida ko'p funksiyali suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasalari funksional tizimining modeli ishlab chiqilgan;

suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasasining 3 xil sig'imdagi (kichik, o'rta va katta) konseptual loyiha takliflari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan ilmiy yondashuv usullari va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, ilmiy natijalar muayyan tadqiqot usullari o'lchov va chizmalar chizish asosida aniqlanganligi hamda ko'p sonli ilmiy maqolalarda o'z aksini topganligi, respublika vakolatli tashkilotlarida amaliyotga joriy etilganligi haqidagi dalolatnomalar bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* O'zbekiston arxitekturasi sohasidagi bilimlarni kengaytirish va boyitish bilan birga arxitektura va qurilish oliy ta'lim muassasalaridagi

“Arxitekturaviy loyihalash”, “Zamonaviy turarjoy va jamoat binolarini loyihalash”, “Bino va inshootlar tipologiyasi” fanlarini o‘qitishda, bundan tashqari, ushbu fanlardan o‘quv adabiyotlari va mavzuga doir monografiyalarni yozish va yaratishda muhimligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* respublikada zamonaviy SuvKSMLarini loyihalash va qurishda, bino va inshootlar arxitekturasi ta’lim yo‘nalishlarining o‘quv jarayonida hamda qurilish va loyiha tashkilotlarida SuvKSMLarining loyiha takliflarini bajarishda katta ahamiyatga ega ekanligi va amaliy foydalanilishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. SuvKSMLarining arxitekturaviy rejalashtirish yechimlarini tadqiq etish va ishlab chiqish mavzusi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“Suv-ko‘ngilochar sog‘lomlashtirish muassasasi” tushunchasiga aniqlik kiritilib “SPA” atamasining mahalliy analogi - “SuvKSM” taklif etilgan va ularning o‘zaro bog‘liqligi aniqlanganligi yuzasidan olingan natijalar O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2022 yil 19 sentabrdagi 09-06/10670-son ma’lumotnomasi). Natijada dissertatsiyada olingan ilmiy yangiliklar O‘zbekiston me’moriy loyihalash va qurilish amaliyotida suv-ko‘ngilochar sog‘lomlashtirish muassasalarini yaratishda ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan;

SuvKSMLarni alohida bino sifatida joylashtirish va mavjud imoratlar tarkibiga birlashtirishda ko‘p funksiyali SuvKSMLarning hajmiy-rejaviy yechimi, joylashish xususiyati, xonalar guruhi kabi loyihalash talablari shakllantirilib, SuvKSMni arxitekturaviy rejalashtirishning kichik, o‘rta va katta sig‘imli sxemalari hamda funksional zonalarining maydonlari, bir vaqtda va bir sutkada xizmat ko‘rsatish quvvati kabi parametrlari ishlab chiqilganligi yuzasidan olingan natijalar O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2022 yil 19 sentabrdagi 09-06/10670-son ma’lumotnomasi). Natijada SuvKSMLarini me’moriy shaharsozlik loyihalash amaliyotida shakllantirish va amalga kiritish yuzasidan ushbu muassasalarni me’moriy-rejaviy, funksiyaviy, hajmiy-fazoviy va kompozitsiyaviy yechimlarini me’yorlashtirish imkoniyatlari yaratilgan;

suv-ko‘ngilochar sog‘lomlashtirish muassasalarining funksional vazifasi, shahar muhitida joylashishi, imoratlar tarkibida yoki alohida joylashishi, foydalaniladigan suvning turi, hajmiy-rejaviy tashkil etilishi, sig‘imi kabi tipologik xususiyatlari aniqlanganligi yuzasidan olingan natijalar O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2022 yil 19 sentabrdagi 09-06/10670-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi hozirgi davrning SuvKSMLarini yaratishda yangi yo‘nalishlarini rivojlantirish, mazkur sohalarda yangi sahifalarni ochib berish imkonini bergan;

SuvKSMLarini arxitekturaviy-rejaviy tashkil etishda suvdan foydalanish, namunaviy modul asosida SuvKSM rejaviy tuzilmasini shakllantirish, arxitekturaviy va hajimiy-rejaviy tashkil etishning bino sig'imiga hamda shahar muhitida joylashishiga bog'liqligi, funksional maqsadi va joylashgan joyning o'zaro bog'liqligi, mavjud jamoat muassasalariga birlashtirish, uchastka tanlashda tabiiy shifobaxsh resurslarning ustuvorligi tamoyillari shakllantirilganligi yuzasidan olingan natijalar O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2022 yil 19 sentabrdagi 09-06/10670-son ma'lumotnomasi). Natijada O'zbekistonda suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasalarini me'moriy shaharsozlik loyihalash amaliyotida shakllantirish bo'yicha aniq tavsiyalarga ega bo'lish imkoniyatlari yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta Xalqaro va 3 ta mahalliy ilmiy anjumanlarda muhokamadan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish, shulardan 12 ta ilmiy maqola, ularning 8 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Ilmiy konferensiyalarda 9 ta shulardan 6 tasi xalqaro va 3 tasi respublika to'plamlarida chop ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi 2 ta jilddan tashkil topgan. I jild matn qismi bo'lib, uning hajmi 130 betni tashkil etib, kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga olgan. II jild ilovalar va illyustratsiyalardan tashkil topgan. Taqdimot materiallari 42x59 sm o'lchamli A2 formatdagi 51 ta planshetlarda tayyorlangan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, ishning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va disser-tatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning I bobi **“Suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasalarining vujudga kelishi, shakllanishi va holatini o'rganish”** deb nomlanib, unda tadqiqot mavzusining mohiyati, ayrim tarixiy davrlar misolida suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish markazlarining shakllanish va rivojlanish evolyutsiyasi, suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasalarini loyihalash, qurish va ulardan foydalanish bo'yicha xorijiy va mahalliy tajribalar tadqiq qilingan.

Biz taklif etayotgan **“Suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasasi”** xorijiy “SPA” atamasining mahalliy analogidir. Halqaro “SPA” atamasining kelib chiqishini o'rganish shuni ko'rsatdiki, hozirgi kunda olimlar “SPA” so'zining paydo bo'lishiga oid ikkita nazariyani ilgari surgan. Keng tarqalgan versiyalardan biri, ushbu atama Rim davridagi Belgiyaning Spa shahri nomi bilan bog'liq bo'lib, u XIV asrdan buyon shifobaxsh buloqlari bilan tanilgan. SPA so'zining yana bir tushunchasi shundayki, SPA lotincha “Sanitas Pro Aqua” iborasining qisqartmasidir, ya'ni - suv orqali sog'lomlashtirish. Bu nazariyaga asosan antik davr shifokorlari turli xil suv

muolajalarini, birinchi navbatda, hammom va ko'ngilochar vannalarni keng qo'llaganlar. Ushbu nazariyani biz asos qilib oldik, chunki u eng asosiy omil sifatida suvdan foydalanishga asoslangan suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasasining funksional vazifalarini ochib beradi.

SuvKSM turli funksional vazifalardagi jamoat binolari bilan bog'liq ko'plab tushunchalar va ta'riflarni qamrab oladi. Shuning uchun mazkur ishda arxitektura nuqtai nazaridan SuvKSM tushunchasini ochib beradigan nazariy atamalarning bir qator asosiy ta'riflarini keltirdik:

suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasasi (SuvKSM) - bu suvning turli holatida suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish xizmatlarini ko'rsatish orqali inson organizmini sog'lomlashtirish, aholining mehnat qobiliyatini tiklash va yaxshilash, bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazish, faol dam olish va ko'ngil ochish hamda sog'lom turmush tarzini ta'minlashda xizmat qiladigan jamoat muassasasidir;

suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish zonasi - bu SuvKSMning to'liq faoliyati uchun zarur bo'ladigan bir xil funksional vazifasiga ega bo'lgan xonalar jamlanmasidir;

suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muhiti - u odamlarning keng va qulay tashrif hududi hisoblanib, bu yerga, suv-ko'ngilochar va sog'lomlashtirish texnologiyalaridan foydalanish, suv-sog'lomlashtirish funksiyalarini qo'llash kabi jarayonlar kiradi;

suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish xizmatlari - bu suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish texnologiyalaridan foydalanishga va sog'lomlashtirish funksiyalarini bajarishga asoslangan harakatlar va xizmatlar majmuidir;

suv-sog'lomlashtirish funksiyalari – bu SuvKSM turidagi muassasalarda taqdim etiladigan inson salomatligi holatini yaxshilashga qaratilgan tibbiy bo'lmagan funksiyalardir;

suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish texnologiyasi – bu atama turli darajadagi va shakldagi SuvKSM obyektlarida amalda ishlatiladigan maxsus uskunalar va uslublarni o'z ichiga oladi.

Rekreatsiya arxitekturasiga tegishli bo'lgan akvaparklar, jismoniy sog'lomlashtirish majmualari, fitnes klublar va mehmonxonalar SuvKSM mavzusining tadqiqot yo'nalishlariga yaqin ekanligi aniqlandi.

Bugungi kunda jahonda har xil turdagi SPA muassasalari juda ko'p uchraydi. Deyarli barcha tiplarda "SPA" so'zi umumlashtiruvchi so'z bo'lib – uning funksiyalari ko'plab muassasalar (SPA mehmonxona, SPA salon, SPA markazi va boshqalar) da qo'shimcha funksiya sifatida qo'llaniladi.

Insoniyat taraqqiyoti tarixi davomida dam olish funksiyalari turli shakllarga ega bo'lgan. Muayyan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan ajralib turadigan har bir davr bu shakllarga alohida xususiyat bergan. Quyida biz Qadimgi Yunoniston, Rim va Osiyo bino va inshootlarida insoniyatning dam olish muammosini hal etishning ancha yorqin misollariga e'tibor qaratamiz.

Osiyo xalqlari qadimdan suv sog'lomlashtirish inshootlaridan foydalanib kelganlar. Qadimgi Hind ibodatxonasidagi yozuv shuni ta'kidlaydi: "tana suv bilan, aql esa bilim bilan poklanadi". Qadimgi Hindistonning Mohyenjo-Daro shahrida

eramizdan uch ming yil oldin suv-sogʻlomlashtirish funksiyalarini oʻz ichiga olgan yaxshi jihozlangan jamoat hammomlari va basseynlari mavjud boʻlgan. Qadimda Suriya va Misrda ana shunday hammomlar ibodatxonalar, saroylar, qalʼalar va qasrlar tarkibiga kirgan. Binolarning tubdan yangi turlari sanalgan amfiteatrlar, forumlar, termlar Qadimgi Yunon va Rim binolaridan kelib chiqqan boʻlib, ularni dam olish muhiti arxitekturasi yangi bosqichiga kiritish mumkin. Taʼkidlangan barcha dam olish maskanlari orasida biz eng xarakterli kompleksga eʼtibor qaratamiz. Bu termlardir. **Termlar** Qadimgi Rim turmush tarzidan ajralmaydigan va meʼmorlikning muhim yutuqlaridan biri hisoblangan. Miloddan avvalgi 1-asr oxiri, milodiy 1-asrning boshlarida termlar qurilishi keng rivoj topadi. 1 mil. aholisi boʻlgan Rimda imperator termlari va 800 ta kichik jamoat hammomlari mavjud boʻlgan. Rim imperiyasining boshlangʻich davrida Rimda 170 ta davlat va xususiy termlar mavjud boʻlib, milodiy IV asrning boshiga kelib - 1000 taga yetgan. Shaharning har 14 ta tumanining birida 60-80 ta term boʻlgan³⁶. Termlarni yaratish, rekreatsiya arxitekturasi butun bir davrni oldindan belgilab, dam olish muassasalari tipologiyasida yangi yoʻnalishni ochib berdi. Ularni shahar va shahar atrof-muhitidagi zamonaviy koʻp funksiyali koʻngilochar-sogʻlomlashtirish markazlarining prototipi deb hisoblash mumkin.

Murakkab qurilgan Rim termlaridan farqli oʻlaroq, Markaziy Osiyo, Yaqin va Oʻrta Sharq mamlakatlarining anʼanaviy suv inshootlari juda oddiy yechimlarga ega boʻlgan. Ularda, odatda, suzish havzalari mavjud boʻlmagan, istisno tariqasida, bu yerda turli massaj turlarini oʻtkazish uchun kichik xonalar boʻlgan. Oʻrta Osiyo xalqi soʻngi oʻrta asrlarda va hatto bizga yaqin davrlarda ham tabiiy chashma buloqlar qoshida koʻpgina **garmobalar** qurishib, ulardan unumli foydalanib kelganlar³⁷. Oʻtmishda shakllangan garmobalardan keyinchalik ularning takomillashgan zamonaviy maxsus meʼmoriy majmualari va hatto oʻsha shifobaxsh tabiiy chashmalar va qurilgan garmobalar asosida SuvKSM kurortlari vujudga kela boshlagan.

Xullas, zamonaviy SuvKSMLarning tarixiy asoslari qadimgi zamonlarda paydo boʻlgan suv muolajalari va marosimlari madaniyati hisoblanib, u mesopotamiya, misr, yunon va rimliklarga, keyinchalik ruslar, eron, turklar, yaponlar, oʻrtaosiyolik va yevropaliklarga tarqalganligi taxlil qilindi.

Maʼlum boʻlishicha, jahonda suv-koʻngilochar sogʻlomlashtirish xizmatlari bozori juda yosh boʻlsada, biroq u jadal oʻziga xos rivojlanib bormoqda. Koʻpgina mamlakatlarda uning hajmi 100% dan oshgan. Global Spa Summit maʼlumotiga koʻra, Yevropa - SuvKSMLar soni boʻyicha dunyodagi suv-koʻngilochar sogʻlomlashtirish xizmatlari sohasida eng yirigi hisoblanadi, 2018 yilda ularning soni 22 mingdan oshganini va ularning eng koʻpi Germaniyada boʻlganini eʼtirof etgan³⁸. Ularning turli funksional tiplari orasida eng koʻpini spa-day, spa-klublar va spa-salonlar hamda ikkinchi oʻrinni spa-mehmonxonalar va spa-kurortlar egallaydi, bizda esa koʻpincha spa-salonlar, spa-mehmonxonalar va spa-kurortlar egallagan.

³⁶ Уралов А.С. Бани-хаммам в зодчестве Центральной Азии. - Самарканд: 2002. 105 с.

³⁷ Uralov A.S. Yusupov R. Oʻzbekistonda jamoat binolarining shakllanishi va rivojlanish tarixi / oʻquv uslubiy qoʻllanma. – Samarqand: 2006. 64 b.

³⁸ Global Spa Summit / [Elektron manba] // Coyle Hospitality – 2008. Manba manzili: <https://www.coylehospitality.com/blog/global-spa-summit>.

O'zbekistonda SuvKSM industriyasining rivojlanish tendensiyasini ko'rib chiqish yangi suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasalari qurilishining strukturasi quyidagicha ko'rinish olganligi belgilandi: 46% kunlik SuvKSMLar, SPA salonlar; 32% SuvKSM zonasiga ega mehmonxonalar; 22% boshqa funksional vazifasidagi SPAlar - SuvKSM zonasiga ega fitnes klublar, akvaparklar, kurortli va sanatorik SuvKSMLar.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, muassasa maydoni 150m² dan ortiq suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish funksiyalarining mavjudligi kabi mezonlarga muvofiq O'zbekistonda 110 ta SuvKSM aniqlandi.

Suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish sohasini o'rganish davomida shuningdek barcha mavjud suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish obyektlaridagi xonalarning namunaviy guruhlari aniqlandi va ularning ro'yxati quyidagicha tuzildi: *kirish zonasidagi xonalar, kiyinish xonalari, basseyn, hammom, turli-xildagi vannalar va dushlar, relaksasiya xonasi, sog'lomlashtirish funksiyalari xonalari, umumiy oqatlanish xonasi, fitnes xonasi.*

SuvKSMLarning hajmiy-rejaviy tuzilishi tahlil qilinib, ular asosida quyidagi tiplar aniqlandi: *markazlashgan, bloklashgan, pavilonli.* SuvKSMLarning rejaviy tuzilishini o'rganish bilan bir qatorda ularning shahar muhitida (*shahar markazi va unga tutash hududlar, turar joy tumanlari va kichik tumanlarda, shahar chegarasi va tashqarisida*) joylashishi tahlil qilindi. Shuningdek, mavjud SuvKSMLar boshqa binolar tarkibida joylashtirishning quyidagi variantlari o'rganildi: *kooperatsiyalangan; biriktirilgan; kombinatsiyalangan; alohida joylashgan.*

Dissertatsiyaning II bobi "**Suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasalari arxitekturasi shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari**" deb nomlanib, unda suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasalari arxitekturasi shakllanishidagi dastlabki shart-sharoitlar hamda ularni arxitekturaviy-rejalashtirishdagi omillar ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, Suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish inshootlari arxitekturasi va ularning tarkibiy qismlarini shakllantirish talablari ishlab chiqilgan.

Zamonaviy suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasalarining paydo bo'lishi va rivojlanish evolyusiyasiga sabab bo'lgan bir qator omillar ham aniqlangan. Bular quyidagilardir: **diniy** - dunyodagi eng qadimiy sivilizasiyalar buloq yoki ko'l suvlarida cho'milish, jismoniy va ma'naviy poklanishga olib keladi, deb hisoblashgan; **tabiiy** - odamlar mahalliy termal, dengiz va mineral suvlarga ega shifobaxsh suv havzalarini kashf etishgan; **ijtimoiy** - jamoatchilik, ya'ni odamlarning suv orqali poklanib, jismoniy va ruxiy salomatligini yaxshilashga intilishi va bu ular hayotining tarkibiy qismiga aylanishi; **urbanistik** - shaharlar urbanizatsiyasi, shahar aholisining o'sib borishi va oqibatda ko'p sonli suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasalariga bo'lgan ehtiyojning oshishi, **texnologik taraqqiyot** - suv ta'minoti tizimining qurilishi (akveduk, viaduk), sement ixtirosi arxitektura va qurilishning yangi sifat darajasiga o'tishiga imkon bergan; **madaniy** - Rim imperiyasining atrofdagi hududlarga kengayishi suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish funksiyalari madaniyatining tarqalishiga olib kelgan; **kommunikatsion** - transport tarmog'ining rivojlanishi shahar aholisini shahar atrofi suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish obyektlariga borishini ta'minlagan; **rekreatsion** - SuvKSM kurortlarida rekreatsiya

sohasining rivojlanishi ushbu turdagi muassasaga bo'lgan talab darajasini oshirgan.

Mavjud SuvKSMlarning evolyutsion rivojlanishi jarayonida arxitekturaviy muhitning shakllanishi bo'yicha tahlil natijasida suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muhitining tuzilishi, mazmuni va shakllanish xususiyatlarini belgilovchi quyidagi eng muhim omillar aniqlandi. Bular:

- **tabiiy-iqlim sharoiti** - SuvKSM me'moriy muhitining shakllanishiga, imoratlarning shakliga va ularning funksional-rejalashtirish xususiyatlariga har tomonlama ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim omillardan biridir. Iqlim, shuningdek imoratlarning konstruksiyalarini va ularni jihozlashda rejalashtirish tizimini tanlash tamoyillarini belgilaydi;

- **ijtimoiy omillar** majmuasi quyidagilarni birlashtiradi: sog'lom turmush tarzini olib boruvchi aholi farovonligining o'sishi, haftasiga ish kunining qisqarishi, mintaqa rekreatsion sohasining rivojlanishi. Jamiyatning rekreatsion ehtiyojlari va zaruratining umumiyliigi: ish bilan band aholining ish qobiliyatini tiklash; reabilitatsiya; davolash; sport bilan shug'ullanish, turizm; dam olish zarurati. Shuni ham ta'kidlash joizki, zamonaviy jamiyatning sanoatlashuvi aholi uchun katta stres yuklarini yaratadi va shu boisdan dam olishga, rekreatsiya va tiklovchi faoliyatga, shu orqali suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirishdek muolajalarga ehtiyoj oshadi;

- **madaniy-geografik** SuvKSM loyihalananayotgan hududning etnik va mintaqaviy madaniy xususiyatlari majmuasini o'z ichiga oladi, bu esa o'z navbatida loyihalananayotgan majmuaning hajmiy-fazoviy tuzilishi, vazifasi va xonalari majmuasiga ham ta'sir ko'rsatadi;

- **shaharsozlik** SuvKSM shahar muhitida yoki uning tashqarisida joylashuvini tahlil qilish masalalarini, shahar imoratlari tarkibida joylashishini, shuningdek, shakllangan arxitekturaviy-shaharsozlik muhitining asosiy xususiyatlariga uyg'unlashuvini yoki ularga nisbatan dominantligini o'z ichiga oladi;

- **iqtisodiy omillar** SuvKSMlarni loyihalashning maqsadga muvofiqligida, xususan, turli funksional zonalar xonalari guruhlarini rejaviy strukturasi bo'yicha, gorizontal va vertikal (zina va yo'lak) bog'lanishlari, bir qavatda joylashgan funksiyalar o'rtasidagi va xonalar bog'lanishlari, xonalarning turli funksional guruhlaridan foydalanishning qulayligi, qurilishda mahalliy va ekologik toza qurilish materiallarining ishlatilishi kabilarda aks etadi;

- **ekolokik landshaft** - SuvKSMning shahar yoki shahar atrofi parki hududida joylashishi bino arxitekturasi atrof-dagi tabiiy landshaft xususiyatlari bilan uyg'unlashuvini talab qiladi. Tabiiy landshaftlarda va turistik-sog'lomlashtirish hududlari orasida joylashgan SuvKSMlar, arxitekturaviy-rejaviy shakllarining atrof-muhit relyefi bilan bevosita bog'liqligi bilan ajralib turadi. Tabiiy landshaftning xarakteri arxitektura shakllarini unga mos tanlanishini belgilaydi;

- **texnologik omil** - SuvKSMning funksional maqsadi, qo'llaniladigan maxsus uslub va uskunalari, xizmat ko'rsatish dasturlari va boshqa omillar SuvKSM texnologiyasini va uning funksional zonalaridagi texnologik xonalarni shuningdek SuvKSM muhitini shakllantirishga ta'sir qiladi.

Shunday qilib, dissertatsiyada SuvKSMni loyihalash jarayonida hisobga olinadigan bir qator xususiyatlar belgilandi (1-rasm):

- bunday inshootlarni hajmiy-rejaviy tashkil etishning quyidagi tiplarini qo'llashni tavsiya etamiz: **markazlashgan** tipdagi ko'p funksiyali (mehmonxona, turarjoy, turbaza va boshqa shunga o'xshash) obyektlarda suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish zonasini alohida qavatda loyihalashtirish, aksariyat hollarda, birinchi yoki sokol qavatda, shuningdek, eng yuqori qavatda, funksional maydonlarning bir qismi (basseyn va relaksatsiya zonasi)ni ekspluatatsiya qilinadigan tomda joylashtirish imkonini beradi; **bloklashgan**, bu tipda ko'p funksiyali majmualarning alohida blokirovka qilingan korpuslardan birida suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish zonasini loyihalash ko'zda tutiladi; **pavilonli** tipi - bu tip suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish zonasini alohida inshootda joylashishini nazarda tutadi. Shuningdek bu tipdagi kompozitsiyaviy tashkil etish ko'pincha katta hududni qamrab oluvchi va bir nechta kirish joylariga ega, SuvKSMLar, suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish zonasi bo'lgan mehmonxonalar, SuvKSMLi sanatoriyalar va kurortli SuvKSMLar uchun ishlatiladi.

- shaharning zich muhitida joylashadigan SuvKSMLar uchun hajmiy-fazoviy yechimning *markazlashgan* tipi qo'llaniladi, *bloklashgan* va *pavilon* tiplari esa SuvKSMLar loyihalashda shahar chegarasida yoki shahardan tashqarida joylashganda qo'llaniladi, chunki ular ochiq basseynlarni o'z ichiga oladi.

- mazkur tiplardagi har qanday muassasani me'moriy-rejaviy tashkil etishda, xonalarning quyidagi bazaviy tarkibi ko'zda tutilishi zarur (kirish xonalari, kiyinish xonalari, basseyn, sog'lomlashtirish funksiyalari uchun xonalar, sog'lomlashtirish dushlari, vannalar va hammomlar);

- SuvKSMLarning sig'imiga qarab (kichik, o'rta va katta) xonalarning funksional guruhlarini soni ham mos ravishda o'zgaradi. O'rta va katta sig'imli SuvKSMLariga quyidagi xonalar qo'shiladi: fitnes mashg'ulotlari uchun xona, jamoat ovqatlanish zonasi, go'zallik saloni yoki sartaroshxona, relaksatsiya va dam olish uchun xonalar hamda fitobar;

- ko'pincha, SuvKSM zonasining arxitekturaviy-rejaviy tashkil etilishidagi kompozitsion markaz shubhasiz basseyndir, SuvKSMdagi barcha funksional bog'lanishlarning kesishish nuqtasi - yechinish-kiyinish zonasi va kirish zonasi ham bo'lishi mumkin.

Dissertasyada SuvKSM xonalari funksional guruhining har biri uchun ushbu xonalarning parametrlari, ularning rejalashtirish kompozitsiyasidagi joylashuvi va ular o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarga nisbatan bir qator talablar shakllantirildi.

Dissertatsiyaning III bobi "**Suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasalarining tipologiyasi va ularni arxitekturaviy loyihalash bo'yicha tavsiyalar**" deb nomlangan bo'lib, unda suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish inshootlarining tipologik xususiyatlari bo'yicha klassifikatsiyasi, SuvKSM asosiy xonalarning tarkibi va parametrlari, SuvKSMning asosiy funksiyaviy-rejaviy sxemalari ishlab chiqilgan hamda "Namunaviy modulning" asosiy parametrlari aniqlangan va uning asosida ishlab chiqilgan ko'p funksiyali SuvKSMLar tizimining modeli yaratilgan. Shuningdek, suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish muassasasining 3 tipdagi (kichik, o'rta va katta) konseptual loyiha takliflari ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, ushbu

bobda, SuvKSMlarni me'moriy loyihalash bo'yicha tavsiya va tamoyillar ishlab chiqilgan.

Zamonaviy SuvKSMlar o'zining funksional xususiyatlari bo'yicha shahar muhitidagi joylashuvi, shahar imoratlari tarkibidagi joylashuvi, foydalaniladigan suv turiga ko'ra, tabiiy shifobaxshlik omiliga ko'ra, hajmiy-rejaviy tashkil etilishi bo'yicha, xizmatlar to'plami va sig'imiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Bu omillarning barchasi loyihalashda hisobga olinadi va ular muassasa xonalarining tarkibi va parametrlariga, binoning arxitekturaviy-rejaviy strukturasi va boshqalarga ta'sir ko'rsatadi.

Bunday muassasalarni belgilovchi asosiy xususiyat, ularning funksional vazifasidir. Bu mezon hozirgi kunda dunyoda ma'lum bo'lgan barcha SuvKSMlar klassifikatsiyasi tizimlarining asosini tashkil etadi. Ular orasida eng keng tarqalgani SPA-muassasasining xalqaro Assosiasiyasi / International Spa Association (ISPA) tashkiloti tomonidan taklif etilgan. Har bir davlatda ushbu turdagi jamoat muassasalarining klassifikatsiyasiga turlicha yondashiladi. Aynan shu holat, shuningdek davlatlarning madaniy, jug'rofiy va milliy an'analari bilan bog'liq bo'lgan bir qator omillar, SuvKSMning dunyoda yagona klassifikatsiyasini joriy etilishiga to'sqinlik qiladi.

SuvKSMlarni tizimlashtirishning xorij tajribalari tahlili hamda mamlakatimizning madaniy-geografik xususiyatlarini tahlil qilish natijasida, mazkur tadqiqotda *funksional vazifasi* bo'yicha O'zbekiston uchun mos SuvKSMlarning klassifikatsiyasi ishlab chiqildi:

- **kunlik SuvKSM** – bu jamoat muassasasi hisoblanib, uning vazifasi, har qanday holatda suvdan muqarrar foydalanish bilan suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish xizmatlarini ko'rsatish orqali inson organizmining yaxshilanishini ta'minlashdan iborat;

- **SuvKSM zonasiga ega akvapark** – bu suvli atraksionlar bilan jihozlangan, suzish havzalari tizimi bilan suv-ko'ngilochar va jamoaviy dam olish uchun mo'ljallangan ko'p sig'imli jamoat muassasasi bo'lib, u suv-sog'lomlashtirish xizmatlarini ko'rsatuvchi xonalar guruhlarini o'z ichiga oladi;

- **SuvKSM zonasiga ega mehmonxona** – bu odamlarning vaqtincha yashashiga mo'ljallangan va suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish xizmatlarini ko'rsatish zonasini o'z ichiga olgan ko'p funksiyali muassasadir;

- **SuvKSM zonasiga ega fitnes klubi** – bu suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish xizmatlarining qo'shimcha funksiyasini taklif etadigan sport yoki fitnes klubidir.

- **suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish zonasiga ega jismoniy-sog'lomlashtirish majmuasi** - ushbu muassasa umumjismoniy tarbiya va aholining faol dam olishlari uchun mo'ljallangan bo'lib, ular qo'shimcha ravishda SuvKSM xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatiga ega;

- **kurortli SuvKSM** – bu tegishli rekreatsion hududlarda (shahar tashqarisida) joylashgan va turar joy bilan ta'minlangan suv-ko'ngilochar sog'lomlashtirish xizmatlarini ko'rsatuvchi tibbiy bo'lmagan muassasadir;

- **SuvKSMli sanatoriya** – tabiiy shifobaxsh resurslarga yaqin joylashgan, reabilitatsiya jarayonlari paytida suv-sog'lomlashtirish xizmatlarini taqdim etuvchi

tibbiy maskan hisoblanadi. Unda tayyorgarlik va rehabilitatsiya jarayonlari davrida doimiy yashash talab qilinadi.

